

PRESS-RELIZ

Kattaqo‘rg‘on shahrida “Eng namunali maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori” ko‘rik-tanlovining shahar bosqichi o‘tkazildi

Kattaqo‘rg‘on shahrida maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlarining kasbiy mahorati, boshqaruv salohiyati va ilg‘or tajribalarini aniqlashga qaratilgan “Eng namunali maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori” ko‘rik-tanlovining shahar bosqichi yuqori saviyada bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tanlov O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tajriba-sinov loyihasi sifatida tashkil etildi hamda Kattaqo‘rg‘on shahridagi 5-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti bazasida o‘tkazildi.

Tadbirning ochilish marosimida Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari S. Mirzayev, Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi G. Alimova, soha mas’ullari, ta’lim tashkilotlari rahbarlari hamda pedagoglar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida so‘zga chiqqanlar mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarni sifatli ta’lim va tarbiya bilan qamrab olish, ta’lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida to‘xtaldilar.

Shuningdek, bu kabi ko‘rik-tanlovlar rahbar kadrlarning tashabbuskorligi, ijodkorligi va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish hamda soha nufuzini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Tanlovda shahar hududida faoliyat yuritayotgan 24 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari ishtirok etdilar. Ishtirokchilar tanlov jarayonida o‘zlarining portfoliolari, ta’lim muassasasini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv loyihalari, innovatsion yondashuvlari hamda rahbarlik mahoratini hakamlar hay’atiga taqdim etdilar.

Bellashuvlar davomida ishtirokchilarning strategik fikrlashi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslari va zamonaviy boshqaruv tajribalarini amaliyotga tatbiq etish darajasi baholandi.

Tanlov yakunlariga ko‘ra:

□ 1-o‘rin — 5-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori Dilafuz Halilova;

□ 2-o‘rin — 15-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori Nilufar Inatullayeva;

□ 3-o‘rin — 22-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori Gulhayo Tog‘ayevaga nasib etdi.

G‘olib va faol ishtirokchilar diplom, faxriy yorliq hamda qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Taqdirlash marosimida Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari S. Mirzayev hamda Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi o‘rinbosari Jasur G‘aniyev ishtirok etib, g‘oliblarga ezgu tilaklarini bildirdilar.

Mazkur ko‘rik-tanlov maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirish, sohaga zamonaviy boshqaruv tajribalarini joriy etish hamda ta’lim sifati va samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

✍ Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi axborot xizmati